



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022



## TAHRIR HAY'ATI:

### **N. SALAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

### **I. ERGASHEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

### **U. MUXAMEDOV**

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

### **S. GULYAMOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **O. OKYULOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **M. AXMEDSHAYEVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **U. TUXTASHEVA**

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

### **SH. SAYDULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **X. XAYITOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **SH. XO'JAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **D. XABIBULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **SH. ISMOILOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **G. TULAGANOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **N. RAXMONKULOVA**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

### **J. NEMATOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **G. UZAKOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

### **A. MUXAMEDJANOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **R. KUCHKAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

### **SH. XAYDAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **SH. ASADOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **D. XUDOYNAZAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

#### **MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**  
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining  
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**  
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov  
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati  
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**  
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan  
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga  
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**  
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni  
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida  
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**  
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav  
jamg'armasidagi qarzdor ulushini  
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**  
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat  
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**  
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBЕК ABDULLO O‘G‘LI**  
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**  
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.  
PROKUROR NAZORATI.  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.  
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBЕК SHUHRAT O‘G‘LI**  
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**  
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

**134 ISLOMOV BUNĒD OCHIOVICH**

Обстоятельства, смягчающие наказание и исключающие преступность деяния по уголовному законодательству Французской Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN  
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

**156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**

Ограничение права на молчание  
в уголовном судопроизводстве:  
опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH  
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of  
digital information as proof in criminal cases in  
Republic of Kazakhstan

**175 URALOV SARBON SARDOROVICH**

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti  
sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC: 347(045)(575.1)

## MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATNING USTAV JAMG'ARMASIDAGI QARZDOR ULUSHINI MAJBURLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Saidov Maqsudbek Norboyevich,**  
Toshkent shahar sudi raisining o'rinbosari,  
iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati raisi  
e-mail: mr.msaidov@gmail.com  
ORCID: 0000-0002-7511-8391

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijoratchi yuridik shaxsning mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rinishidagi tashkiliy-huquqiy shakli tasnifi, uning yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllaridan farqi va afzalliklari, jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) tushunchasi, ustav fondining jamiyat faoliyatidagi ahamiyati, jamiyat ustav fondidagi ulush, ulushning nominal, haqiqiy va bozor qiymati tushunchalari va ularning farqli jihatlari, undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi ulushiga qaratish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudlarga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan subyektlar, murojaat qilish tartibi va bosqichlari, protsessual hujjatlarga qo'yiladigan talablar, bu boradagi sud amaliyoti tahlili, ishlarning sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi jarayonida yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan muammolar va huquq normalarining qo'llanilishi yuzasidan fikr-mulohazalar, sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlari, ularni ijroga qaratish bo'yicha tushuntirishlar va majburiy talablarga rioya qilinmagan taqdirda, ish yuritilganda vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar, undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi ulushiga qaratish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va bu sohadagi normativ-huquqiy bazasi, xorijiy davlatlar qonun hujjatlarining milliy huquq normalari bilan qiyosiy tahlili, undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi ulushiga qaratish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarga takliflar borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** mas'uliyati cheklangan jamiyat, ta'sis hujjati, ustav fondi, ulush, ulush qiymati, umumiy yig'ilish, undiruvni ulushga qaratish, protsessual hujjatlar, sud hujjatlari, sud hujjatining ijro etish usuli.

### ОСОБЕННОСТИ ОБРАЩЕНИЯ ВЗЫСКАНИЯ НА ДОЛЮ ДОЛЖНИКА В УСТАВНОМ ФОНДЕ ОБЩЕСТВА С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ

**Саидов Максудбек Норбоевич,**  
заместитель председателя  
Ташкентского городского суда,  
председатель судебной коллегии  
по экономическим делам

**Аннотация.** В данной статье освещается классификация организационно-правовой формы коммерческого юридического лица в форме общества с ограниченной ответственностью, ее отличия и преимущества от других организационно-правовых форм юридического лица, понятие уставного фонда общества, роль уставного капитала в деятельности общества, понятие доли в уставном фонде общества, номинальной, реальной

и рыночной стоимости доли и их отличительные особенности, рассмотрены субъекты, имеющие право обращаться в суды по делам об обращении взыскания задолженности на долю должника в уставном фонде общества, порядок и этапы обращения, требования к процессуальным документам, анализ судебной практики по данным вопросам, проблемы, возникающие в процессе рассмотрения дел в судах, мнения о применении правовых норм, судебные акты, принимаемые судами, разъяснения по их исполнению и последствия, которые могут возникнуть в случае несоблюдения обязательных требований. Изучен опыт зарубежных стран по обращению взыскания на долю должника в уставном фонде общества и нормативно-правовая база, регламентирующая данную сферу. Проведен сравнительный анализ законодательства зарубежных стран с нормами национального законодательства, по итогам которого сформулированы предложения по совершенствованию нормативных правовых актов, определяющих порядок обращения взыскания задолженности на долю должника в уставном фонде общества.

**Ключевые слова:** общество с ограниченной ответственностью, учредительный документ, уставной фонд, доля, стоимость доли, общее собрание, обращение взыскания на долю, процессуальные документы, судебные акты, способ исполнения судебного акта.

## PECULIARITIES OF FORCING THE DEBTOR'S SHARE IN THE AUTHORIZED FUND OF A LIMITED LIABILITY COMPANY

**Saidov Maksudbek Norboyevich,**  
Deputy chairman of Tashkent city court,  
Chairman of the judicial board for economic affairs

**Abstract.** This article highlights the classification of the organizational and legal form of a commercial legal entity in the form of a limited liability company, its differences and advantages from other organizational and legal forms of a legal entity, the concept of the authorized capital of the company, the role of the authorized capital in the activities of the company, the share in the authorized capital of the company, the concepts of the nominal, real and market value of the share and their distinctive features, entities entitled to apply to the courts in cases of debt collection to the debtor's share in the statutory fund of the company, the procedure and stages of appeal, requirements for procedural documents, analysis of judicial practice on these issues, problems arising in the process of considering cases in courts and opinions on the application of legal norms, judicial acts adopted by the courts, explanations on their implementation and the consequences that may arise in case of non-compliance with mandatory requirements, experience of foreign countries in foreclosure on the share of the debtor in the authorized capital of the company and the legal framework governing this area, a comparative analysis of the legislation of foreign countries with the norms of national legislation, proposals for regulatory legal acts that determine the procedure for recourse to debt collection on the share of the debtor in the authorized capital of the company.

**Keywords:** limited liability company, constituent document, authorized capital, share, share value, general meeting, foreclosure on a share, procedural documents, judicial acts, method of execution of a judicial act.

### Kirish

O'zbekistonda korporativ boshqaruvga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining o'z faoliyatini "mas'uliyati cheklangan jamiyati" shaklida amalga oshirishi boshqa tash-

kiliy-huquqiy shakllarga qaraganda sezilarli darajada katta hissani tashkil etadi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 2021-yilning 1-avgust holatiga respublikamizda jami 323 066 ta mas'uliyati

cheklangan jamiyat ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 306 753 tasi faoliyat yuritmoqda [1]. Davlat ro'yxatidan o'tishning soddaligi va qulayligi, tadbirkorlik sohasidagi faoliyatida erkinligi, ishtirokchi va yuridik shaxs mulkining alohida ajratilganligi, qarzlar va majburiyatlar bo'yicha yuridik shaxs va ishtirokchilar javobgarligining asoslari qat'iy belgilanganligi mazkur toifadagi tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lgan yuridik shaxslarning omalashishiga sabab bo'lmoqda.

“Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”-gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo’lingan xo’jalik jamiyati mas’uliyati cheklangan jamiyat (matnda jamiyat deb yuritiladi) deb hisoblanadi, deb ta’rif berilgan. Yuridik shaxslarning bunday va shunga o’xshash turlari huquq tizimining ham anglo-sakson (Buyuk Britaniyada “Limited liability company” LLC), ham romano-german (Germaniya Federativ Respublikasi va Avstriya Respublikasida “Gesellschaft mit beschränkter Haftung” “GmbH” “GesmbH”, Rossiya Federatsiyasida “Obshestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu” OOO) [2] huquq oilasiga mansub ko’pgina rivojlangan davlatlarida mavjud. Yuridik va jismoniy shaxslar bunday tashkiliy-huquqiy shaklga ega yuridik shaxslarning ishtirokchilari bo’lib, ular jamiyatning majburiyatlari bo’yicha javobgar bo’lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog’liq zararlar uchun o’zlari qo’shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo’ladilar [3, 203-b.]. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat ishtirokchilarining tadbirkorlik tavakkalchiligi ularning jamiyat ustav fondiga kiritgan hissalarining miqdori bilan cheklanadi. Jamiyat ishtirokchilari tavakkalchiligining cheklanganligi – bu tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik subyektlarining jozibadorligini oshiradi va investorlarni pul mablag’larini

jamiyatga tikkan holda faoliyat yuritishga ko’proq jalb etadi. Bunday jozibadorlik, o’z navbatida, investitsion muhitning kengayishi va samarali rivojlanishi uchun muhim element hisoblanadi.

Jamiyat ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan ulush va ustav kapitali miqdori jamiyat faoliyatida ham muhim o’rin egallaydi. Zero, jamiyat tashkil etilishida uning faoliyatini boshlashi uchun dastlabki sarmoya hisoblanib, jamiyatning keyingi faoliyatida uning moliyaviy ustuni sifatida funksional vazifalarni bajaradi. Shaxs korporatsiya ishtirokchisi (a’zosi) maqomini olar ekan, u korporatsiyaga nisbatan egalik imkoniga emas, balki subyektiv huquqlarga ega bo’ladi. Shu bilan birga, muayyan majburiyatlarni oladi [4].

Bundan tashqari, jamiyatning ustav fondi jamiyat kreditorlarining manfaatlarini ta’minlovchi jamiyat mol-mulkinging minimal miqdorini belgilaydi. Jamiyatning ustav fondi qancha ko’p bo’lsa, u bozor ishtirokchilarining ushbu jamiyat bilan hamkorlik qilish istagini shuncha oshiradi. Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali) jamiyatning ustavida belgilanadi va uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatidan iborat bo’ladi. Ulushning nominal qiymati jamiyatning ta’sis hujjatlarida aniq ko’rsatilgan bo’ladi. Boshqacha aytganda, ta’sis hujjatlarida deklaratsiyalanadigan ulushning qiymati nominal qiymat deyiladi.

Jamiyat ustav fondidagi ulush ishtirokchiga korporativ munosabatlarga kirishish, ularni amalga oshirish va jamiyatni boshqarish huquqini beradi. Ulushning boshqa shaxsga o’tishi muayyan korporativ munosabatlarning tugatilishi va yangi korporativ munosabatlarning vujudga kelishiga sabab bo’ladi. G.Ruchkina “Корпоративное право” darsligida korporativ munosabatlarning tugatilishi bo’yicha asoslarni uch guruhga (ishtirokchining, jamiyatning hamda uchinchi shaxslarning tashabbusiga ko’ra) bo’lib, qarzni jamiyat ishtirokchisining ustav fondidagi

ulushiga qaratish uchinchi shaxslarning tashabbusiga ko'ra korporativ munosabatlarning tugatilishiga yaqqol misol sifatida sanab o'tgan [5, 100-b.].

Korporativ munosabatlarni vujudga keltiruvchi yoki bekor qiluvchi, ishtirokchilarning huquqiy maqomini belgilovchi undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)dagi ulushiga qaratish masalasida turli xil yondashuvlarning mavjudligi, qonunni qo'llash borasidagi fikrlar xilma-xilligi, eng muhimi, sudlarda ham bu borada yagona amaliyotning mavjud emasligi ushbu sohani tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Korporativ nizolarga oid ayrim muammolar MDHga a'zo davlatlarning huquqshunos olimlari tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Xususan, E.A. Suxanov, E.V. Afanaseva, G.F. Ruchkina, E.I. Vyalix, A.A. Danelya, E.Yu. Pashkova, D.N. Severin ilmiy ishlarida korporativ nizolar muayyan darajada yoritilgan bo'lib, milliy qonunchiligimizda bu institutning hamda korporativ huquqiy munosabatlarning yangiligi bois hali yetarlicha tadqiq qilinmagan. Lekin korporativ huquq, korporatsiyalar, mas'uliyati cheklangan jamiyati, aksiyali jamiyatlarning huquqiy holati, korporativ nizolar, ularning turlari va kelib chiqish sabablari, bu nizolarning sudlar tomonidan hal qilinish xususiyatlari bir qator huquqshunos olimlarimiz hamda tadqiqotchilarimiz, jumladan, X.R. Rahmonqulov, S.S. Gulyamov, O. Oqyulov, O'P. Xolmirzayev tomonidan o'rganilgan va ilmiy tadqiq qilingan.

### **Material va metodlar**

Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, modernizatsiya qilish jarayonlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, qulay biznes muhiti yaratish, shubhasiz, amaldagi qonunchilikni izchil takomillashtirish bilan bog'liqdir.

Bu esa sud-huquq tizimi, jumladan, iqtisodiy sudlar zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yuklab, iqtisodiy munosabatlarda

qonunchilikni mustahkamlash, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga to'siq bo'layotgan holatlarni bartaraf etish borasida belgilab berilgan vazifalarni yanada takomillashtirish talabini kun tartibiga qo'yimoqda [6, 392-b.].

Mazkur maqolada mas'uliyati cheklangan jamiyat ustav fondi (ustav kapitali) tushunchasi, ustav fondining jamiyat faoliyatidagi ahamiyati, jamiyat ustav fondidagi ulush, ulushning nominal, haqiqiy va bozor qiymati tushunchalari va ularning farqli jihatlari, undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi ulushiga qaratish to'g'risidagi ishlar, murojaat qilish tartibi, bu boradagi sud amaliyoti tahlili, ishlarning sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, sudlar tomonidan qabul qilinadigan sud hujjatlari, undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi ulushiga qaratish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi, xorijiy davlatlar qonun hujjatlarining milliy huquq normalari bilan qiyosiy tahlili, shu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarga takliflar ilgari surilgan.

Maqolada ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Jamiyatning "ustav fondi" va "ustav kapitali" bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lib, u jamiyat mol-mulkinging o'z kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan darajadagi eng kam miqdorini aks ettiradi. Shu o'rinda huquqshunoslar V. Tereshenko va A. Federovalarning "Ustav fondi va ustav kapitali: umumiy va farqli jihatlari" maqolasida ushbu atamalar o'rtasidagi farqqa quyidagicha ta'rif berilgan: "Ustav kapitali korxonaning boshlang'ich kapitali hisoblanadi. Bu korxonada mulkdorlari tomonidan korxonaga moliya-xo'jaligi faoliyatini amalga oshirishda foyda olish maqsadida kiritilgan mablag'larda ifodalanadi. Ustav fondi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan korxonaga berilgan mulk bilan bir qatorda korxonaga faoliya-

ti davomida orttirilgan moliyaviy resurslar, qimmatli qog'ozlar to'plami, boshqa moddiy va nomoddiy aktivlar va korxonaning mulkidir" [7].

"Fond" (lot. – fundus) "tuproq" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun bu tushunchani iqtisodiyot aktivlari ko'payishi uchun asos sifatida ko'rib chiqish mumkin [8, 377-b.].

Jamg'arma – bu kompaniyaning potentsial ishlab chiqarish energiyasiga ega bo'lgan mulki, ammo u mablag'lar aylanishida bevosita ishtirok etmaydi [9, 71-b.]. M.A. Kiparisov "fond" tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: 1) foydaning bir qismini taqsimlash yoki ustav kapitali hajmidan ortiq bo'lgan maxsus badallar orqali korxonaga pul mablag'larining haqiqiy oqimi; 2) aksiyaning mo'ljallangan maqsadi, chunki fondlarni shakllantirish orqali korxonalar o'z xodimlarining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirdilar hamda ishlab chiqarishni kengaytirish va turli ehtiyojlarni qondirish uchun katta miqdordagi mablag'larni yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ldilar [10, 267-b.].

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 19-moddasining ikkinchi qismida ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pulda ifodalangan holdagi) yig'indisini aks ettiradi. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischi (ishtirokchilar) o'rtasidagi kelishuvga ko'ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak deb belgilangan.

Garchi jamiyatning ustav fondi jamiyatning mol-mulkidan tashkil topsada, "jamiyatning ustav fondi" va "jamiyatning mol-mulki" tushunchasi bir-biridan farq qiladi. Chunki jamiyat faoliyati davomida uning mol-mulkilari ko'payishi yoki, aksincha, kamayishi mumkin. Jamiyat mol-mulking ko'payishi va kamayishi jamiyat ustav fondining ko'payganligi yoki kamayganligini

anglatmaydi. Buning uchun qonunchilikda alohida tartib-tamoyillar belgilangan bo'lib, ustav fondini ko'paytirish va kamaytirish ishtirokchilarning xohish-irodasi yoki jamiyat ustav fondi miqdori yoxud uning tarkibiga qo'yiladigan talablar o'zgarishi natijasida amaldagi qonun hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlarga muvofiq amalga oshiriladi. Jamiyat ustav fondiga kiritilmagan, biroq jamiyat balansi va buxgalteriya hujjatlarida aks etgan boshqa mol-mulkilari bo'lishi mumkin, ammo jamiyatning ustav fondi jamiyat mol-mulki miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas. Ustav fondidagi ulush ishtirokchiga jamiyatning unga yuridik shaxs sifatida mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkiga hech qanday ashyoviy huquqlar bera olmaydi.

Agar jamiyat ishtirokchisi muayyan kreditorlardan qarzdor bo'lib, ushbu qarzdorlikni undirish yuzasidan sudning hal qiluv qarori mavjud bo'lsa, biroq uning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushidan boshqa mol-mulki bo'lmasa yoki undagi boshqa mol-mulkilari ijro hujjatidagi talablarini qoplash uchun yetarli bo'lmasa, undiruv qarzdorning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qanday tartibda qaratiladi? Bu borada sud amaliyoti qanday shakllangan?

Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, qonunchilikda jamiyat tushunchasiga berilgan ta'rif hamda uning xarakteridan kelib chiqib, jamiyat javobgar bo'lgan ish bo'yicha iqtisodiy sud tomonidan qabul qilingan qarorni ta'minlash chorasi sifatida jamiyat ishtirokchisining mulki xatlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

"Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni (matnda Qonun deb yuritiladi) 47-moddasining ikkinchi qismiga ko'ra, ijro hujjatlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslardan undiruv, birinchi navbatda, qarzdorning so'mdagi va chet el valyutasi-dagi pul mablag'lari hamda boshqa qimmatliklari, shu jumladan, banklardagi va boshqa

kredit tashkilotlaridagi pul mablag'lari hamda o'zga qimmatliklariga qaratiladi.

Odatda, moddiy qimmatliklar, xususan, pul mablag'lari, avtotransport, ko'chmas mulk obyekti va boshqalar undiruv obyekti hisoblanadi. Jamiyat ustav kapitalidagi ulush ham fuqarolik-huquqiy bitimlar obyekti bo'la oladigan va ijro ishini yuritish doirasida undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mulkdir [11].

Qonunning 47-moddasi o'ninchi qismiga asosan, qarzdorning undiruvchi talablarini qanoatlantirish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmasa, davlat ijrochisi o'z qarori bilan qarzdor hisobvaraqlarining xarajatlar qismini qarz to'liq uzilguniga qadar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xatlaydi. Bank yoki boshqa kredit tashkiloti qarzdorning pul mablag'larini xatlash haqidagi qarorni darhol ijro etadi va davlat ijrochisiga qarzdorning hisobvaraqlari rekvizitlari hamda har bir hisobvaraqa bo'yicha xatlangan pul mablag'lari miqdorini ma'lum qiladi. Ayni bir vaqtda undiruv qarzdorga tegishli bo'lgan boshqa mol-mulkka qaratiladi. Ushbu Qonunning 52-moddasiga muvofiq, ijro hujjatlari bo'yicha undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan mol-mulk bundan mustasno.

Qarzdorning muayyan bir jamiyatdagi ulushidan boshqa mol-mulki bo'lmagan taqdirda, ushbu jamiyatdagi ulushiga undiruvni qaratish Qonunning 48<sup>3</sup>-moddasi uchinchi qismida belgilangan bo'lib, unga ko'ra, qarzdorning ijro hujjatidagi talablarni ijro etish uchun yetarli mol-mulki bo'lmaganda, undiruv sud qarori asosida qarzdorning mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, to'liq shirkat, kommandit shirkat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga, qarzdorning ishlab chiqarish kooperatividagi payiga qaratiladi.

"Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi undiruvni jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapita-

lidagi) ulushiga qaratish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, kreditorlarning talabiga binoan, jamiyat ishtirokchisining qarzlari bo'yicha undiruvni jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga (ulushining bir qismiga) qaratishga qarzlarni qoplash uchun jamiyat ishtirokchisining boshqa mol-mulki yetarli bo'lmaganda, faqat sudning qarori asosida yo'l qo'yiladi.

Har ikkala qonun normalarida ham jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulush – undiruv obyekti sifatida mulkning alohida shakli ko'rinishida sanab o'tilgan va undiruv ulushga qaratilgunga qadar muayyan harakatlarni amalga oshirish zarurligi belgilangan. Ulush yoki uning bir qismining o'tishi murakkab va muhim mexanizmlardan bo'lib, bu mas'uliyati cheklangan jamiyatning unikaligini belgilaydi [12].

"Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 24-moddasining birinchi qismida hamda Qonunning 48<sup>3</sup>-moddasi uchinchi qismida undiruv qarzdorning mas'uliyati cheklangan jamiyati ulushiga sud qarori asosida qaratilishi belgilanganda, qonun chiqaruvchi sudning aynan qanday qarorini nazarda tutganligi, kreditor sud tomonidan bunday qaror qabul qilinishi uchun qanday protsessual harakatlarni amalga oshirishi lozimligi bo'yicha qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlarida aniq tushuntirish mavjud emasligi sababli sud amaliyotida yuqorida qayd etilgan qonun normalarini qo'llashda ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (matnda IPK deb yuritiladi)ning 5-moddasida sud hujjatlarining hal qiluv qarori, ajrim, qaror, sud buyrug'i shaklidagi to'rt xil ko'rinishi sanab o'tilgan bo'lib, birinchi instansiya sudi faqat ma'muriy javobgarlikka oid ish yakuni bo'yicha "qaror" shaklidagi sud hujjatini qabul qilishi belgilangan.

Fikrimizcha, qonun chiqaruvchi “Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni 24-moddasining birinchi qismida hamda Qonunning 48<sup>3</sup>-moddasi uchinchi qismida undiruv qarzdorning mas’uliyati cheklangan jamiyati ulushiga “sud qarori” asosida qaratilishi mumkinligini belgilashda O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 18-moddasiga asoslangan. Chunki mazkur normaga ko’ra, fuqarolik ishlari bo’yicha sudlar tomonidan qabul qilinadigan majburiy xarakterdagi sud hujjatlari (hal qiluv qarori, ajrim, qaror, sud buyrug’i) bir nom bilan “qaror” deb yuritilishi belgilangan.

Shuni ta’kidlash joizki, sudlarda undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)dagi ulushga qaratilishi yuzasidan alohida statistik hisobotlar yuritilmaydi. Jumladan, da’vo tartibida ko’rib hal etilgan mazkur ishlar statistik hisobotlarda boshqa nizolar turkumiga kiritilganligi sababli ularning aniq hisob-kitobi mavjud emas. Sud hujjatining ijro etish usuli va tartibini o’zgartirish yuzasidan yuritilgan hisobotlarga qaraganda, 2021-yilda respublika iqtisodiy sudlari tomonidan jami 4 534 ta sud hujjatlarining ijro etish usuli va tartibini o’zgartirish to’g’risidagi arizalar ko’rib chiqilib, shundan 3 623 tasi qanoatlantirilgan, 811 tasini qanoatlantirish rad etilgan, 12 tasi ko’rmasdan qoldirilgan va 88 tasi bo’yicha ish yuritish tugatilgan.

Tahlillar shuni ko’rsatmoqdaki, iqtisodiy sudlarda bu borada ikki xil sud amaliyoti mavjud bo’lib, birinchi holatda undiruvni qarzdorning mas’uliyati cheklangan jamiyati ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish alohida da’vo tartibida ko’rib, yakuni bo’yicha “hal qiluv qarori” shaklidagi sud hujjati qabul qilingan bo’lsa, ikkinchi holatda ushbu masala sud hujjati ijrosining usulini o’zgartirish haqidagi ariza asosida sudning ajrimi bilan hal etilgan.

Jumladan, “Polymer pigments” MCHJ (matnda da’vogar deb yuritiladi) Toshkent

tumanlararo iqtisodiy sudiga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 4-1001-2115/431-sonli ishi bo’yicha 2021-yil 28-yanvardagi hal qiluv qaroriga asosan da’vogar foydasiga “Diamond optimal” MCHJdan jami 63 267 840 so’m qarzdorlikni undirish belgilanganligi, ushbu qarorga asosan, 2021-yil 2-martda ijro varaqasi berilganligi, “Diamond optimal” MCHJ qarzdorlikni to’lamaganligi, Majburiy ijro byurosi Olmazor tuman bo’limi tomonidan ijro ishi qo’zg’atilgan bo’lsa-da, qarzdorning undiruv qaratilishi mumkin bo’lgan mol-mulk-lari bo’lmaganligi sababli ijro ishi yurituv tugalanganligi va sud hujjati ijrosiz qaytarilganligi, “Diamond optimal” MCHJ “Glass house” MCHJning ishtirokchisi sifatida ustav fondida 74 foiz ulushga ega ekanligi, “Glass house” MCHJning ustav fondi 10 789 510 000 so’mni tashkil qilishi, 4-1001-2115/431-sonli ish bo’yicha sud hujjati ijro etish usuli va tartibini o’zgartirish haqida sudga ariza bilan murojaat qilganligi, lekin sud tomonidan ariza da’vo tartibida ko’rib chiqilishi lozimligi sababli rad qilinganligini bayon qilib, javobgarlar “Diamond optimal” MCHJ va “Glass house” MCHJga nisbatan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 4-1001-2115/431-sonli ishi bo’yicha 2021-yil 28-yanvardagi hal qiluv qaroriga muvofiq undiruvni qarzdor “Diamond optimal” MCHJning “Glass house” MCHJ ustav fondidagi ulushiga (ulushining bir qismiga) qaratishni so’ragan.

Aniqlanishicha, ushbu da’vo arizasi sudga kiritilishidan oldin da’vogar “Polymer Pigments” mas’uliyati cheklangan jamiyati sudga 2021-yil 4-yanvarda RR/04-sonli da’vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar “Diamond Optimal” mas’uliyati cheklangan jamiyatidan 50 000 000 so’m asosiy qarz va 25 000 000 so’m penya, jami 75 000 000 so’m undirib berishni so’ragan.

Sudning 2021-yil 28-yanvardagi hal qiluv qarori bilan da’vo qanoatlantirilib,

javobgardan da'vogar foydasiga 50 000 000 so'm asosiy qarz, 12 500 000 so'm penya, oldindan to'lab chiqilgan 750 000 so'm davlat boji va 17 840 so'm pochta xarajati, jami 63 267 840 so'm undirish belgilangan. Ushbu qarorga asosan, 2021-yil 2-martda ijro varaqasi berilgan.

Majburiy ijro harakatlari samara bermagach, da'vogar sudga ariza bilan murojaat qilib, ijro varaqasining ijro etish usuli va tartibini o'zgartirib, undiruvni "Diamond Optimal" mas'uliyati cheklangan jamiyatining "Glass House" mas'uliyati cheklangan jamiyatidagi ulushiga qaratishni so'ragan.

Sudning 2021-yil 28-iyuldagi ajrimi bilan "Polymer Pigments" MCHJ ijro varaqasining ijro etish usuli va tartibini o'zgartirib, undiruvni "Diamond Optimal" mas'uliyati cheklangan jamiyatining "Glass House" mas'uliyati cheklangan jamiyatidagi ulushiga qaratish haqidagi ariza talabini qanoatlantirish rad etilgan. Sud hujjatiga da'vogar "Polymer Pigments" mas'uliyati cheklangan jamiyatining sud hujjatini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi arizasi qonun talablariga zid bo'lganligi asos sifatida ko'rsatilgan.

Shunga asosan, da'vogar javobgarlar "Diamond optimal" MCHJ va "Glass house" MCHJga nisbatan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 4-1001-2115/431-sonli ishi bo'yicha 2021-yil 28-yanvardagi hal qiluv qaroriga muvofiq undiruvni qarzdor "Diamond optimal" MCHJning "Glass house" MCHJ ustav fondidagi ulushiga (ulushining bir qismiga) qaratishni so'ragan.

Ish yakuni bo'yicha sud "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 24-moddasining birinchi qismi hamda "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

48<sup>3</sup>-moddasining uchinchi qismiga asosan, "Diamond optimal" MCHJ tomonidan da'vogar oldidagi 63 267 840 so'm qarzdorlik to'lab berilmaganligi va majburiy tartibda undirish imkoni bo'lmaganligini inobatga olib, sudning 4-1001-2115/431-sonli ish bo'yicha "Diamond optimal" MCHJ hisobidan undirilishi belgilangan jami 63 267 840 so'm undiruvini "Diamond optimal" MCHJning "Glass house" MCHJ ustav fondidagi ulushiga (ulushining bir qismiga) qaratishni lozim topgan. Shuningdek, javobgar "Diamond optimal" MCHJ hisobidan da'vogar "Polymer pigments" MCHJ hisobiga 1 265 357 so'm davlat boji va 19 600 so'm pochta xarajati undirilgan.

Xuddi shuningdek, undiruvni qarzdorning mas'uliyati cheklangan jamiyati ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratishni sudning ajrimiga (birinchi misolda hal qiluv qarori asosida undirilgan) muvofiq hal etilgan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 1001-1806/21174-sonli ishini misol qilib keltirish mumkin. Mazkur ish bo'yicha qabul qilingan 2020-yil 21-avgustdagi ajrim bilan 2018-yil 12-fevraldagi hal qiluv qarori bo'yicha 2018-yil 16 martdagi ijro hujjati asosida "NEFTGAZMONTAJ" MCHJ foydasiga undirilishi lozim bo'lgan 13 973 803 578,20 so'm asosiy qarz va 262 497 906 so'm penya "Jangsu Right Machinery Grop Co LTD" kompaniyasining MCHJ shaklidagi "Samarqand-NPK" qo'shma korxonasidagi 47,15 %, nominal qiymati 2 500 000 AQSh dollarini tashkil etadigan ustav fondidagi ulushiga qaratilgan.

Ushbu masalada chet davlatlar tajribasi o'rganilganda, kreditorlarning talabiga binoman, jamiyat ishtirokchisining qarzlari bo'yicha undiruvni jamiyat ishtirokchisining boshqa jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish ushbu davlatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq turli xil amalga oshirilishi aniqlandi.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumi va Oliy arbitraj sudi Plenumi

“Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to’g’risida”gi Federal Qonunini qo’llashning ayrim masalalari to’g’risida” 1999-yil 9-dekabrda 90/14-sonli qarorining 19-bandiga ko’ra, “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to’g’risida”gi Federal Qonuni 25-moddasining 1-bandiga asosan, jamiyat ishtirokchisining qarzlari bo’yicha undiruvni jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav kapitalidagi ulushiga qaratishga qarzlarni qoplash uchun jamiyat ishtirokchisining boshqa mol-mulki yetarli bo’lmaganda, faqat sudning qarori asosida yo’l qo’yiladi.

Mazkur Plenum qarorida agar sudning qarori bilan jamiyat ishtirokchisidan kreditor foydasiga pul mablag’larini undirish belgilangan bo’lsa va ushbu qarorning ijrosi jarayonida “Ijro ishini yuritish to’g’risida”gi Federal Qonunning 50- va 59-moddalariga muvofiq, unda undiruv qaratilishi mumkin bo’lgan pul mablag’lari va boshqa mol-mulklar mavjud emasligi aniqlansa, kreditor ushbu Qonunning 18-moddasi, RSFSR Fuqarolik protsessual kodeksining 207-moddasi va Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksining 205-moddalariga asosan, sud qarorining ijro etish usulini o’zgartirish va undiruvni jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav kapitalidagi ulushiga qaratish to’g’risidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega. Mazkur holatda sud arizachi tomonidan taqdim etilgan qarzdorda boshqa mol-mulklar mavjud emasligini tasdiqlovchi dalillar (sud pristavi-ijrochisi tomonidan tuzilgan dalolatnoma)ga baho berishi va ushbu fakt tasdiqlangan taqdirda, sud qarorining ijro etish usulini o’zgartirish va undiruvni ishtirokchining jamiyat ustav kapitalidagi ulushiga qaratish to’g’risida ajrim qabul qilishi lozim.

“Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”gi Ukraina Respublikasi Qonuni 22-moddasining birinchi qismiga ko’ra, jamiyat ishtirokchisining qarzlari bo’yicha undiruvni jamiyat ishtirokchisining ulushiga qaratish ishtirokchidan pul mablag’larini undirish to’g’risidagi

ijro hujjatining ijrosi bo’yicha yoki undiruvni mulkiy kafilning boshqa shaxsning majburiyatlarini ta’minlash uchun garovga qo’yilgan ulushiga qaratish to’g’risidagi ijro hujjati asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan ko’rinadiki, Rossiya Federatsiyasida undiruvni qarzdorning mas’uliyati cheklangan jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish sud qarorini ijro etish usulini o’zgartirish to’g’risidagi ariza asosida sudning ajrimi bilan hal etiladi. Ukraina Respublikasida esa undiruvni jamiyat ishtirokchisining jamiyatdagi ulushiga qaratish ishtirokchidan pul mablag’larini undirish to’g’risidagi ijro hujjatining ijrosi bo’yicha to’g’ridan to’g’ri amalga oshiriladi.

#### **Tadqiqot natijalari va tahlili**

O’rganishlar tahlili shuni ko’rsatmoqdaki, sud hujjati asosida undirilgan qarzdorlik undiruvini qarzdorning mas’uliyati cheklangan jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish – sud hujjatini ijro etish usulini o’zgartirish to’g’risidagi ariza bilan O’zbekiston Respublikasi IPKning 342-moddasiga asosan sudning ajrimiga muvofiq hal etilishi lozim.

IPK 342-moddasining birinchi qismiga ko’ra, ijro harakatlarini amalga oshirishga to’sqinlik qiladigan obyektiv holatlar mavjud bo’lganda, sud davlat ijrochisining, undiruvchining yoki qarzdorning arizasiga ko’ra, sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo’lib-bo’lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o’zgartirishga haqli. Qonunda ulush mol-mulkning alohida ko’rinishi sifatida qayd etilib, sud hujjatini majburiy ijro etish jarayonida undiruvni to’g’ridan to’g’ri ulushga qaratish cheklanganligi sababli ijro harakatlarini amalga oshirishga to’sqinlik qiladigan obyektiv holat sifatida baholanishi lozim.

Aynan shu bois undiruvni jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish sud hujjatining ijro etish usulini o’zgartirish orqali amalga oshiriladi va bunday ariza bilan,

odatda, sudga davlat ijrochisi yoki undiruvchi murojaat qiladi.

Amaliyotda sud hujjatini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza sudga qachon berilishi mumkinligi bo'yicha turli fikrlar mavjud. Ayrim amaliyotchilar sud hujjatining ijro etish usuli va tartibi majburiy ijro harakatlari jarayonida, ya'ni ijro ishi yuritish tamomlangunga qadar hal etilishi lozim bo'lgan masala deb qarashsa, boshqalar qonunda muayyan vaqt belgilanmaganligi sababli ushbu masala majburiy ijro harakatlari jarayonida ham, ijro ishi yuritish tamomlangandan keyin ham hal etilishi mumkin deb hisoblashadi.

Fikrimizcha, bunday holatda ariza kim tomonidan berilayotganligi muhim. Chunki Qonunning 41-moddasiga ko'ra, davlat ijrochisi ijro ishi yuritish tamomlanganidan so'ng qarzdordan ijro yig'imi, davlat ijrochisi tomonidan qarzdorga solingan jarimalar hamda ijro xarajatlarini undirish to'g'risida ilgari chiqarilgan va ijro etilmagan qarorlarning ijrosini davom ettiradi. Boshqa hech qanday harakatni amalga oshirishga haqli emas. Shu sababli davlat ijrochisi tomonidan sud hujjatini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza faqatgina majburiy ijro harakatlari jarayonida berilishi mumkin. Undiruvchi va qarzdor tomonidan arizaning sudga taqdim etilishida cheklov belgilanmaganligi sababli ushbu shaxslar sud hujjatini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan majburiy ijro harakatlari jarayonida ham, ijro ishi yuritish tamomlangandan keyin ham murojaat qilishlari mumkin. Bunda ariza sud tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda, uni ijroga taqdim etish uchun ajrimga ijro etish usuli va tartibi o'zgartirilgan ijro varaqasining asl nusxasi ilova qilib berilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Rayosatining 2015-yil 22-oktabrdagi 78-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2014-yil va 2015-yilning birinchi yarmi davomida xo'jalik sudlari tomonidan "Sud hujjatlari va bosh-

qa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 48<sup>3</sup>-moddasi qo'llanilishi bilan bog'liq sud amaliyotini umumlashtirishda keltirilganidek, IPKda bunday arizaning shakli va mazmuniga aniq talab qo'yilmaganligi sababli ariza erkin shaklda tuzilishi mumkin. Shuningdek, bunday ariza da'vo arizasi hisoblanmasligi sababli IPKning 154- va 155-moddalarida keltirilgan asoslar bo'yicha uni qabul qilishni rad etish yoki qaytarishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday turdagi arizalar faqatgina imzolanmagan yoki vakolatli shaxslar tomonidan imzolanmagan taqdirdagina, ular IPK 155-moddasi birinchi qismining 2-bandiga mos holda qaytariladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi "Birinchi instansiya sudi tomonidan Iqtisodiy protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 2019-yil 24-maydagi 13-sonli qarorida ham tushuntirish berilgan.

Undiruvni qarzdorning mas'uliyati cheklangan jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish orqali sud hujjatining ijro etish usulini o'zgartirish to'g'risidagi arizaga qarzdorning undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulki yoki daromadlari yo'qligi va uning mol-mulki yoki daromadlarini qidirish yuzasidan qonunda yo'l qo'yiladigan doirada ko'rilgan barcha choralar natijasiz ekanligi, shuningdek, qarzdorning o'sha jamiyatdagi ulushi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi lozim.

Qonunning 40-moddasi ikkinchi qismiga asosan, davlat ijrochisi tomonidan tuzilgan dalolatnoma – qarzdorning jamiyatdagi ulushidan boshqa mol-mulki mavjud emasligi, Stat.uz ochiq ma'lumotlar saytidan olingan axborot yoki jamiyatning ta'xis hujjatlari qarzdorning jamiyatdagi ulushi mavjudligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Sud hujjatining ijro etish usulini o'zgartirish haqidagi ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran yigirma kunlik mudatda, garchi keyinchalik sud hujjati yuqori

instansiya sudlarida o'zgartirilgan yoki bekor qilingan bo'lsa-da, birinchi instansiya sudi tomonidan sud majlisida ko'rib chiqiladi va natijalari bo'yicha ajrim chiqarilib, uning ko'chirma nusxasi undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek, agar sud hujjatining ijrosi davlat ijrochisining ish yurituvida bo'lsa, davlat ijrochisiga yuboriladi. IPK talablariga muvofiq, bunday ajrim ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Shu o'rinda bir holatga alohida e'tibor qaratish joiz. Qarzdorning mol-mulki mavjud emasligi to'g'risida dalolatnoma tuzilganidan so'ng davlat ijrochisi ijro hujjatini undiruvchiga qaytarish va ijro ishi yuritishni tamomlash to'g'risida qaror chiqaradi. Amaliyot tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, kreditor ushbu dalolatnomani olib, sud hujjatining ijro etish usulini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilguniga va ariza sud tomonidan ko'rib chiqilguniga qadar ayrim qarzdorlar fuqarolik huquqlarini suiiste'mol qilib, jamiyatdagi o'ziga tegishli ulushini hech qanday to'siqlarsiz begonalashtirish holatlari ham mavjud. Buning oqibatida ayrim kreditorlar ulushni begonalashtirish bilan bog'liq bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'volar bilan sudlarga murojaat qilishmoqda.

Bunday holatning oldini olish hamda kelgusida sud hujjatlarining ijrosini o'z vaqtida va so'zsiz ta'minlashga erishish maqsadida Qonunning 21-moddasi ikkinchi qismini quyidagi mazmundagi 8-band bilan to'ldirish taklif qilinadi:

... "davlat xizmatlari markazlari:

Davlat ijrochilarining yuridik shaxslar ta'sis hujjatlariga o'zgartirish kiritish, shuningdek, ulushga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazishga davlat ijrochisi tomonidan belgilangan taqiqlarni ijro etadi".

Qonunga mazkur mazmundagi normaning kiritilishi bir tarafdin vakolatli davlat organlarining o'zaro hamkorligini belgilaydi va bu borada sud hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi hududida aniq va bir xilda ijro etilishi-

ni ta'minlaydi, ikkinchi tarafdin mulkdorlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Qonunda sud hujjatlarining ijrosini ta'minlashda qarzdorning aniqlangan ulushlarini xatlash va ularga taqiq qo'yish masalasi yoritib berilmaganligi sababli davlat ijrochilarida majburiy ijro harakatlarini olib borish jarayonida undiruvni ulushga qaratish masalasida ikkilanishlar yo'q emas. Vaholanki, pul mablag'larini undirish to'g'risidagi ijro hujjatini ijro etish jarayonida davlat ijrochisi tomonidan qarzdorning jamiyatdagi ulushi aniqlangan taqdirda, undiruvni mazkur ulushga qaratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilingan yoki qilinganligidan qat'i nazar, ulushning begonalashtirilishining oldini olish maqsadida davlat ijrochisida Qonunning 53-moddasiga asosan ulushni xatlash huquqi mavjud. Zero, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 83-moddasiga muvofiq, ulush ham mol-mulk hisoblanadi.

Qonunning 7-moddasiga ko'ra, sud hujjatlaridan tashqari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlarning hujjatlarini ham ijro hujjatlarini hisoblanadi.

Shuni inobatga olish joizki, IPKning 342-moddasida faqatgina sud tomonidan berilgan ijro hujjatining ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish masalasi nazarda tutilgan.

Shu sababli sud tomonidan ijro hujjatining ijro etish usuli va tartibini o'zgartirishni boshqa organlarning hujjatlariga asosan qo'zg'atilgan ijro ishi yurituviga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Chunki "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi birinchi qismida hamda Qonunning 48<sup>3</sup>-moddasi uchinchi qismida qayd etilgan sudning qarori zamirida undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish faqat sud tartibida amalga oshirilishi masalasi yotibdi.

Qayd etilgan qonun hujjatlarining tahlili sudning pul mablag'larini undirish to'g'risi-

dagi hal qiluv qarori asosida berilgan ijro varaqalari bo'yicha undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish sud hujjatini ijro etish usulini o'zgartirish to'g'risidagi ariza asosida sudning ajrimi bilan hal etilishi mumkinligi, boshqa organlarning ijro hujjatlari asosida esa undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish sudning birlamchi hal qiluv qarori mavjud bo'lmaganligi sababli uning ijro etish usulini o'zgartirish yo'li bilan emas, balki umumiy tartibda da'vo tartibida hal etilishi lozimligini ko'rsatadi va ishni ko'rish yakuni bo'yicha hal qiluv qarori shaklidagi sud hujjati qabul qilinadi.

Undiruvni qarzdorning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratish to'g'risidagi sud hujjatini ijro etish tartibi ham muayyan vaqt talab etadigan ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

Sud tomonidan undiruvni jamiyat ustav fondidagi ulushga qaratish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishda ulushning haqiqiy qiymatini aniqlash tadqiqot predmeti bo'lmaydi. Bunday arizani ko'rib chiqish jarayonida sud tomonidan qarzdor jamiyat boshqa jamiyatda ishtirokchi maqomiga ega yoki ega emasligi o'rganiladi. Ulushning qiymatini aniqlash va uni realizatsiya qilish esa majburiy ijro jarayonidagi bosqich hisoblanadi.

“Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasida jamiyat ishtirokchisining qarzlari bo’yicha undiruv jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratilgan taqdirda, ulush qiymatining haqiqiy qiymati jamiyat hamda jamiyatning qolgan ishtirokchilari tomonidan to’lab berilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Jamiyat ishtirokchisi ulushining haqiqiy qiymati jamiyat sof aktivlari qiymatining uning ulushi miqdoriga mutanosib bo’lgan bir qismiga mos bo’ladi. Sof aktivlar esa jamiyatning qarz majburiyatlari chegirib tashlan-

gan holdagi mol-mulkinging qiymatiga tengdir.

Agar jamiyatning ustavi yoki jamiyat ishtirokchilari umumiy yig’ilishi qarorida haq to’lash miqdorini aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo’lmasa, jamiyat ishtirokchilari umumiy yig’ilishining jamiyat barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilingan qaroriga binoan, mol-mulkinga undiruv qaratilgan jamiyat ishtirokchisi ulushining (ulushi bir qismining) haqiqiy qiymati kreditorlarga jamiyatning qolgan ishtirokchilari tomonidan, ularning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga mutanosib ravishda to’lanishi mumkin.

E’tiborli jihati shundaki, undiruv ulushiga qaratilgan jamiyat ishtirokchisi (qarzdor) ham mazkur ovoz berishda ishtirok etadi. Chunki “Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunida bunday qarorning qabul qilinishida qarzdorning ishtirok etmasligi yoki uning ovozi inobatga olinmasligi lozimligi to’g’risida ko’rsatma mavjud emas.

Bunday holatda qarzdor huquqlarini suiiste’mol qilgan holda, ulardan insofsizlarcha foydalanib, o’zining jamiyatdagi ulushining haqiqiy qiymatini jamiyat yoki uning boshqa ishtirokchilari tomonidan to’lanishi to’g’risidagi qarorga qarshi ovoz bergan holda, ushbu qarorning qabul qilinishiga erishish ehtimoli bor. Oqibatda Qonunda majburiy ijro harakatlarini olib borish bilan bog’liq muddatlarning buzilishi hamda boshqa ishtirokchilar ulushni sotib olishdagi imtiyozli huquqidan mahrum etilishi mumkin. Zero, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni 24-moddasining beshinchi qismiga ko’ra, agar jamiyat kreditorlari tomonidan talab taqdim etilgan paytdan e’tiboran uch oy ichida jamiyat yoki uning ishtirokchilari undiruv qaratilgan jamiyat ishtirokchisi butun ulushining (butun ulushi bir qismining) haqiqiy qiymatini to’lamasa, undiruvni

jamiyat ishtirokchisining ulushiga (ulushining bir qismiga) qaratish uni ochiq kim oshdi savdosida sotish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasida undiruv jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga qaratilgan taqdirda, ulushning haqiqiy qiymatini jamiyat yoki uning boshqa ishtirokchilari tomonidan to'lanishi to'g'risidagi qaror qabul qilishda qarzdorning ovoz berishdagi ishtirokini cheklovchi normani kiritish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, Qonunning ushbu moddasida qarzdor jamiyatning yagona ishtirokchisi bo'lgan hollarda undiruvni uning jamiyatdagi ulushiga qaratish masalasini ham aniq yoritib berish lozim.

"Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga ko'ra, jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushining (ulushi bir qismining) haqiqiy qiymati undiruvni jamiyat ishtirokchisining qarzlari bo'yicha uning ulushiga (ulushining bir qismiga) qaratish to'g'risida jamiyatga talab qo'yilgan sanadan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Biroq kreditor jamiyatning hujjatlari, shu jumladan, uning buxgalteriya hisobotlari bilan tanishish huquqiga ega emas. O'z navbatida, jamiyat ham kreditorga ulush qiymatining hisobi bo'yicha hujjatlarni taqdim etishga majbur emasligi sababli kreditor ulushning haqiqiy qiymati to'g'ri aniqlanib, hisoblanganligi va unga to'langanligi haqida ishonchli ma'lumotga ega bo'la olmaydi [13]. Bunday holatda jamiyat va uning ishtirokchilari tomonidan ulushning qiymati kamaytirilishiga imkon yaratiladi.

"Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Ukraina Respublikasi Qonunining 22-moddasida undiruvni jamiyat ishtirokchisining ulushiga qaratishning o'ziga xos xususiyatlari sanab o'tilgan bo'lib, unda ijrochi tomonidan ijro hujjatining ijrosi bo'yicha jamiyat ishtirokchisining ulushiga undiruvni qaratish mexanizmi, ijrochi harakatlarining ketma-ketligi va muddatlari aniq belgilab berilgan.

Xususan, unda ijrochi jamiyat ishtirokchisining ulushiga undiruv qaratilishi haqida jamiyatni xabardor qilishi va ulushni xatlash to'g'risidagi qarorni jamiyatga yuborishi, jamiyat ushbu xabarnomani olgan kundan boshlab 30kun ichida ijrochi va qarzdorga moliyaviy hisobotlari hamda qarzdor ulushi qiymatini aniqlash uchun kerak bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishi, 30 kunlik muddat tugaganidan so'ng 15 kun ichida ijrochi ulush xatlangan kun holatiga qarzdorning ulushi qiymatini hisoblab chiqarishi, shundan so'ng ijrochi jamiyatning boshqa ishtirokchilariga (ulushga bo'lgan imtiyozli huquqidan yozma ravishda voz kechganlardan tashqari) ulushni sotib olishni taklif qilishi, sotib oluvchi oldi-sotdi shartnomasi tuzilganidan so'ng 10 kun muddat ichida ulush qiymatini to'lab berishi, to'lov ushbu muddatda amalga oshirilmagan taqdirda, oldi-sotdi shartnomasi bekor qilingan hisoblanishi, ijrochi to'lov amalga oshirilganidan so'ng 10 kunlik muddat ichida ulushni sotib oluvchiga taqdim etishi, agar jamiyat qarzdor ulushi qiymatini aniqlash uchun kerak bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etmasa, jamiyatning boshqa ishtirokchilari ulushga bo'lgan imtiyozli huquqidan foydalanmasa va oldi-sotdi shartnomasi bekor qilingan deb hisoblansa, ulush umumiy tartibda auksion savdosi orqali realizatsiya qilinishi ko'rsatilgan [14].

Fikrimizcha, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi va "Sud hujjatlari

va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunida ham undiruvni qarzdorning mas'uliyati cheklangan jamiyat ustav fondidagi ulushiga qaratishni amalga oshirish mexanizmi batafsil ko'rsatilib, davlat ijrochisining harakatlari ketma-ketligi va muddatlari aniq belgilab berilishi lozim.

Ulushni ochiq kim oshdi savdosi orqali realizatsiya qilish undiruvni jamiyat ishtirokchisining ulushiga qaratish to'g'risidagi sud hujjatini majburiy ijro etish jarayonidagi so'nggi bosqich hisoblanadi. Bunda ulushni sotish uchun mazkur ulushning qiymati baholangan bo'lishi lozim. Xususan, Qonunning 54-moddasi birinchi qismida ro'yxatga olingan mol-mulkni baholashni tashkil etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud ijrochisi tomonidan "bozor qiymati" bo'yicha amalga oshirilishi to'g'risida tushuntirish berilgan.

"Baholash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga ko'ra, baholash obyektining bozor qiymati deganda, eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko'ra, mazkur baholash obyektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda, o'z manfaatlari yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi.

Sohaviy normativ-huquqiy hujjatlarida "ulushning bozor qiymati" va "ulushning nominal qiymati" kabi turli xil terminologiyalarning qo'llanilishidan qat'i nazar, ijro ishi yurituvi jarayonida mol-mulkni realizatsiya qilishda davlat ijrochisi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ish tutadi. Natijada qarzdorning jamiyat ustav fondidagi ulushi qiymati tegishli tartibda jalb etiladigan baholash tashkiloti tomonidan bozor qiymati bo'yicha aniqlanadi.

Biroq "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida undiruv jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga (ulushining bir qismiga) qaratilganda, kreditorga "ulushning haqiqiy qiymati" to'lanishi nazarda tutilganligi sababli Qonunning 54-moddasi quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilishi lozim.

Qarzdorlikni jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga (ulushining bir qismiga) qaratilayotgan ulush qo'shimcha baholanmaydi hamda jamiyatga talab qo'yilgan sanadan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlanadigan haqiqiy qiymat bo'yicha realizatsiya qilinadi.

#### **Xulosalar**

Yuqorida qayd etilganlardan shunday xulosalar qilish mumkinki, jamiyat ustav fondidagi ulush mulk turlaridan biri hisoblanadi hamda undiruvni unga qaratish bo'yicha qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish talab etiladi. Xususan, jamiyat ustav fondidagi ulush va uning qiymatini aniqlash mexanizmlarini batafsil belgilash, undiruvni mazkur ulushga qaratish jarayonlarini soddalashtirish va mazkur masaladagi qonunchilikni tizimlashtirish lozim.

Fikrimizcha, undiruvni qarzdorning mol-mulkiga, shu jumladan, uning jamiyat ustav fondidagi ulushiga qaratish masalalari ijro hujjatlarini ijro etish shartlari va tartibini belgilaydigan sohaviy normativ-huquqiy hujjat bo'lgan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan to'liq tartibga solinishi lozim. Bunday normalarning boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi (bu holatda "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida) va bu borada ayrim kollizion normalarning mav-

judligi nafaqat yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish imkonini bermaydi, balki ijro ishini yuritish to'g'risidagi qonunchilik tizimida muayyan tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bu esa, o'z navbatida, kreditorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish jarayonining cho'zilib ketishi va hatto himoyasiz qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, amaliyotdagi mazkur muammolarning nazariy yechimlarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilishni taqozo qiladi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli farmoyishida xususiy mulk daxlsizligi kafolatlarini ta'minlaydigan, jismoniy va yuridik shaxslarning, ayniqsa, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni belgilash fuqarolik qonunchiligini yanada takomillashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlar bazasi [Database of the Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.]. Available at: <https://stat.uz/uz/>.
2. Tipi inostrannix kompaniy i ix abbreviatur [Types of foreign companies and their abbreviations]. Available at: <https://internationalwealth.info/offshore-for-newbies/foreign-company-types-and-abbreviations/>.
3. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi [Civil law]. Part I. Editor-in-Chief H. Rahmonkulov. Rev. and suppl. 5th ed. Tashkent, TSU Publishing House, 2009, 611 p.
4. Lomakin D.V. Korporativnie pravootnosheniya kak sostavnaya chast sistemi grazhdansko-pravovix otnosheniy: na primere xozyaystvennix obshestv [Corporate rights as a part of the system of civil and legal relations: in the first economic relations]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 2009. Available at: <https://www.dissercat.com/content/korporativnye-pravootnosheniya-kak-sostavnaya-chast-sistemy-grazhdansko-pravovykh-otnoshenii/>.
5. Ruchkina G.F. Korporativnoe pravo [Corporative law]. Moscow, Yurayt Publ., 2019, 212 p.
6. Iqtisodiy protsessual huquq [Economic procedural law]. Ed. Z.N. Esanova. Tashkent, TSUL, 2020, 530 p.
7. Tereshenko V.S., Fedorova A.A. Ustavniy fond i ustavniy kapital: obshie i otlichitelnie cherti [Authorized fund and authorized capital: common and distinctive features]. Available at: [http://www.rusnauka.com/15\\_NPN\\_2009/Economics/46685.doc.htm/](http://www.rusnauka.com/15_NPN_2009/Economics/46685.doc.htm/).
8. Karneev A.P. Balans v marksistskom osveshenii [Balance in Marxist coverage]. *Schetovodstvo – Accounting*, 1927, no. 5, p. 377.
9. Yaremko I.Y. Ekonomichni kategorii v metodologii obliku [Economic categories in accounting methodology]. Lvov, Kamenyar, 2002, 192 p.
10. Kiparisov N.A. Fondi i rezervi [Funds and reserves]. *Schetovodstvo – Accounting*, 1926, no. 3, p. 267.
11. Gusakov S.Yu. Obrashenie vziskaniya na dolyu dolznika v ustavnom kapitale obshestva s ogranichennoy otvetstvennostyu [Foreclosure on the debtor's share in the authorized capital of a limited liability company]. Available at: <https://kmcon.ru/articles/jurist/obrashhenie-vzyskaniya-na-dolyu-dolzhnika-v-ustavnom-kapitale-obshhestva-s-ogranichennoj-otvetstvennostyu.html/>.

12. Mogilevskiy S.D., Samoylov I.A. Korporatsii v Rossii: pravovoy status i osnovi deyatelnosti [Corporations in Russia: Legal status and basics]. Moscow, Delo Publ., 2006. Available at: <http://lawlibrary.ru/izdanie58647.html/>.

13. Chuvashева M.V. Osobennosti obrasheniya vziskaniya na dolyu ili chast doli uchastnika v ustavnom kapitale obshestva s ogranichennoy otvetstvennostyu [Features of Foreclosure on a Share or Part of a Participant's Share in the Authorized Capital of a Limited Liability Company]. Available at: <https://lawfirm.ru/article/index.php?id=4137/>.

14. Burov N. Obrashenie vziskaniya na dolyu uchastnika obshestva [Foreclosure on the share of a member of the company]. Available at: <https://de-jure.ua/obrashhenie-vzyskaniya-na-dolyu-uchastnik/>.